

## BEHINING XALQ XO‘JALIGIDAGI AHAMIYATI

Usmonqul Islomov

Jizzax politexnika instituti o‘qituvchisi dots.

Sevara Maxammadqulova

Jizzax politexnika instituti 2-bosqich talabasi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada mualliflar behi mevasining xalq xo‘jaligidagi ahamiyati, foydali hususiyatlari va kelgusida start-up loyiha sifatida behidan jem ishlab chiqarish va uni eksport qilish bo‘yicha yangi qadoqlash usullari haqida ma‘lumotlar berib o‘tdilar.

**Kalit so‘zi:** behi tarkibi, behining kelib chiqish tarixi, yetishtirish, mevasini gullash davri, jem ishlab chiqarish.

### Annotation

In this article, the authors provided information about the importance of quince fruit in the national economy, its useful features, and new packaging methods for the production and export of quince jam as a start-up project in the future.

**Key words:** composition of quince, history of origin of quince, cultivation, period of flowering of fruit, jam production.

Har bir millatning buyukligi jahon tamadduniga qo‘shgan hissasi qurgan inshoatlari, qoldirgan bebaho asarlari bilan birgalikda qishloq xo‘jalik, agrar sohaning yanada yuqori pog‘onalarga ko‘tarilishi bilan ham belgilanadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi o‘tgan yillar davomida rivojlanishning yangi pog‘onalarga ko‘tarildi. 2017-2021 yillarni o‘z ichiga olgan Harakatlar strategiyasining 3.3 bandida qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlanish pillapoyasiga chiqarish birinchi o‘rinda turgan masala bo‘ldi. 2022-2026 yillarni o‘z ichiga olgan Taraqqiyot strategiyasi oldingi strategiyaning uzviy davomi bo‘ldi desak adashmaymiz. Qishloq xo‘jalik sohasini yanada rivojlantirish uchun zamonaviy va yangicha yondashuvlar, qabul qilingan qonunlar, muhim farmon va qarorlar, davlat dasturlari tarmoqini serdaromad, qishloq joylarda odamlarni ish bilan ta‘minlaydigan tizim sifatida shakllanishini amalga oshirdi. Mamlakatda oziq-ovqat sohasini jadal rivojlantirish va diversifikatsiyalash esa uning xomashyo ba‘zasini kengaytirish va mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini berdi. Buni O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati yiliga o‘rtacha 9-10 foizni tashkil etayotganidan ham ko‘rish mumkin [1].

Jahon miqyosida aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda agrar sohaning o‘rni va ahamiyati kundan-kunga oshib bormoqda. Jumladan, mamlakatimizda ham mavjud resurs va

imkoniyatlardan oqilona foydalanib, aholini qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan kafolatli ta‘minlash, hosildorlik va manfaatdorlikni yanada oshirish, sohaga ilm-fan yutuqlari hamda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish dolzarb masaladir. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida, kambag‘allikni qisqartirish va qishloq aholisi daromadlarini ko‘paytirishda eng tez natija beradigan omil bu - qishloq xo‘jaligida hosildorlik va samaradorlikni keskin oshirish ekanligini alohida ta‘kidlab o‘tgani so‘zimizning isbotidir.

Bilamizki behi ra‘nodoshlar oilasiga mansub mevali daraxt yoki buta hisoblanadi. Behining Ozarbayjon, Dog‘iston, Turkmanistonda uning yovvoyi turlari bor [1]. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida behi mevasi “ayva” nomi bilan tilga olingan. Turk tilida ham behi aynan ayva nomi bilan ishlatiladi. Behi Kavkaz, O‘rta Osiyo, Qrim, Ukrainaning janubi hamda Astraxon viloyatida keng tarqalgan. Yurtimizning behizorlarning 80% Farg‘ona vodiysida bo‘lib, uning balandligi 5-6 m, shoxshabbalari piramida shaklida, ba‘zan tarvaqaylab o‘sadi. Bargi oddiy, yashil, cheti butun hamda gullari yakka holda, oq yoki och pushti ranglarda bo‘ladi. Bahor faslining aprelda gullaydi. Behi ko‘chati yerga o‘tkazilgandan so‘ng 3-4 yil ichida hosilga kira boshlaydi. Behi 30-40 yil yashaydi. Katta yoshdagi daraxtlari o‘rtacha 60-70 kg hosil beradi. Mevasi sentabr-oktabr oylarida uzib olinadi, vazni naviga qarab 150-500 g boradi. Behi mevalari limon rangda yoki to‘q sariq, tuk bilan qoplangan, yetilganda tuki to‘kilib ketadi, xushbo‘y ifor o‘zidan taratadi. Behi entomofil (hasharotlar bilan changlanadigan) o‘simlik. Tarkibida 74,7-83,5% suv, 8,5-15,2% qand, 0,2-1,5% kislota shuningdek oshlovchi moddalar va tosh hujayralar bo‘ladi. Mevasi dag‘al bo‘lib, uzoq saqlangandan keyin tosh hujayralar yumshab qoladi. Behidan murabbo, kompot, marmelad, sukat, qiyom, jem tayyorlanadi, ovqatga (ko‘pincha palovga bosiladi) ishlatiladi. Behi asosan, payvandlab ko‘paytiriladi, ko‘chati 6×6 yoki 5×5 m sxemada o‘tqaziladi. Behining ko‘pchilik navlari nokka payvandtag bo‘la oladi, unga ulangan nok esa pakana bo‘ladi. Behi issiqlik va namlikka talabchan bo‘lib, sug‘oriladigan unumdor tuproqlarda, shuningdek sho‘ri kam yerlarda yaxshi o‘sadi. O‘suv davrida tuproq sharoitiga qarab 3-8-marotaba sug‘oriladi [2].

Uy sharoitida behidan jem tayyorlash orqali maqolamizni bajarilgan tadqiqot yuzasidan ko‘lamini





kengaytirmoqchimiz. Qandolat mahsulotlarini yanada tashqi ko‘rinishini hushbichim qiladigan jemlar hidi va ta‘mi bilan alohida ahamiyatga egadir. Jemning turli idishlarda qadoqlanganiga albatta ko‘zimiz tushgan. Politelin idishlar orqali mahsulotimizni qadoqlashimiz bozor savdosiga mahsulotni chiqarishimizda arzon qiymatga tushadi. Bu esa mahsulotga bo‘lgan talabning yuqoriga ko‘tarilishidan dalolat beradi. 3 D max orqali biz jemning yangi qadoqlash ko‘rinishini yaratdik. Bu esa behili jem mahsulotiga talabi yuqori bo‘lgan mamlakat aholisi uchun bizning ilk tavsiyalarimizdan biri bo‘lishiga ishonamiz [3].

### **1- rasm Behidan jem tayyorlash va uni qadoqlash**

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki: mamlakatimizda yetishtirilayotgan meva mahsulotlarini qayta ishlash orqali yetishtirilgan har bir mahsulotimiz chiqitga chiqmaydi balki, qayta ishlangan mahsulotlar nafaqat yurtimizning balki chet el fuqarolarining ham dasturxonini bezab turishi shubhasiz. Bu esa o‘z navbatida eksport sohasini yanada kengaytirib iqtisodiy samaradorlikka erishtirishi hech shubhasiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

- 1- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi PQ-4947 “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”
- 2-Necdet Eryilmaz , Ziraat Yüksek Mühendisi ‘‘Meyvecilik’’ (2010).
- 3-[http// behi](http://behi) va [nok](http://nok)// morfologik hususiyati.